<b>G'aniyev Botir Baxtiyorovich</b>	
Повышение инвестиционной привлекательности – важное условие повышения конкурентоспособности предприятий.....	865
<b>Каримова Дилафруз Садирдин кизи</b>	
Yevropa ittifoqi davlatlari tijorat banklarining soliq to'lovlarini amalga oshirish tartibi .....	870
<b>Komolov Odiljon Sayfidinovich</b>	
Boshqaruvda innovatsiyalarni hisobga olgan holda agrokorxonalarni davlat tomonidan rag'batlantirishning zamonaviy yondashuvlari .....	878
<b>Shaniyazova Zamira</b>	
Практические аспекты применения статистических методов контроля качества на предприятиях.....	883
<b>Усманов Илхом Ачилович, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Yashil iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy o'sishning yangi paradigmalarini shakllantirish: nazariy asoslar va amaliy talqinlar.....	891
<b>Alimova Guzal Abduxakimovna</b>	
Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlarining nazariy va metodologik tahlili .....	895
<b>Qo'ziyoyev Boxodir Azzamboy o'g'li</b>	
Kutubxonalarda raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes-modellarni ishlab chiqish.....	900
<b>Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li</b>	
To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash operatsiyalari bo'yicha xarajatlarni xalqaro standartlar asosida hisob va hisobotda aks ettirish uslubi-yatini takomillashtirish .....	905
<b>X.A.Raximov</b>	
Kameral soliq tekshiruvda smart texnologiyalarini ma'lumotlarini soliq organlarining ma'lumotlar bazasida shakllanishi.....	910
<b>Ergashev Uyg'un Jabborovich</b>	
Obligatsiya moliya bozori instrumenti sifatida, milliy obligatsiyalar bozori .....	916
<b>Avezov Ibrohim Ilxomovich, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich</b>	
Barqaror rivojlanish doirasida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) ko'rsatkichlarining yashil texnologiyalar innovatsiyasiga ta'sirini baholash.....	921
<b>Meliqo'zieva Dilrabo Muxitdin qizi</b>	
Yashil iqtisodiyot – barqaror taraqqiyotga olib boruvchi yo'l.....	925
<b>Xalilova Aziza Rustamovna</b>	
Научно-теоретические основы экономической и эколого-экономической эффективности предприятий горнодобывающей промышленности.....	930
<b>Раматов Зафарбек Жуманиязович</b>	
Xitoyda eksport faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.....	938
<b>D.E.Qarshiev</b>	
Kichik sanoat zonalarida investitsion jozibadorlikni oshirishni investitsion faollikka ta'siri.....	943
<b>Mannapova Shaxnoza Elshodovna</b>	
Mahalla institutining samaradorligi tahlili: so'rovnomaga yondashuvi .....	947
<b>Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li</b>	



# MAHALLA INSTITUTINING SAMARADORLIGI TAHLILI: SO'ROVNOMA YONDASHUVI

**Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li**

TDIU, Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish kafedrasi dotsenti, PhD.

Iqtisodiy va institutsional tadqiqotlar markazi katta ilmiy xodimi.

ORCID ID: 0000-0002-9169-5316

E-mail: v.bahriddinov@tsue.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda mahalla institutlari faoliyati samaradorligi ijtimoiy so'rovnoma asosida tahlil qilingan. So'rovnoma "Google Forms" platformasi orqali o'tkazilgan bo'lib, u ikki bo'limdan iborat bo'lgan va jami 13 ta savolni o'z ichiga olgan. So'rov natijalari asosida mahalla institutlari faoliyatining hozirgi holati baholangan hamda ularning samaradorligini yanada oshirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** mahalla instituti, ijtimoiy samaradorlik, mahalla fuqarolar yig'ini, mahalla yettiligi, kambag'allik, aholi daromadlari.

**Abstract:** This article analyzes the effectiveness of mahalla institutions in Uzbekistan through a social survey. The survey was conducted via "Google Forms" and consists of two sections with a total of 13 questions. Based on the survey results, proposals and recommendations have been developed to further enhance the effectiveness of mahalla institutions.

**Key words:** Mahalla institution, social effectiveness, mahalla citizens' assembly, seven council of mahalla, poverty, population income.

**Аннотация:** В данной статье с помощью социологического опроса проанализирована эффективность деятельности институтов махалли в Узбекистане. Опрос был проведен через "Google Forms" и состоит из двух разделов, включающих в общей сложности 13 вопросов. Также на основе результатов опроса разработаны предложения и рекомендации по дальнейшему повышению эффективности институтов махалли.

**Ключевые слова:** институт махалли, социальная эффективность, сход граждан махалли, махаллинская семерка, бедность, доходы населения.

## KIRISH

Mahalla – O'zbekiston jamiyatining eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, u nafaqat an'anaviy jamoatchilikning tarkibiy qismi, balki davlat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlovchi asosiy institut hisoblanadi. Mahalla instituti o'z faoliyati orqali mahalliy aholining ijtimoiy muammolarini hal qilish, ma'naviy va madaniy merosni saqlash, shuningdek jamoat tartibini ta'minlashda muhim vazifalarni bajaradi.

O'zbekistonda mahalla instituti davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. Mamlakat mustaqillikka erishgandan so'ng mahalla tizimi faoliyatini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish va jamoatchilik bilan davlat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shu munosabat bilan mahalla institutining samaradorligini tahlil qilish va bu boradagi dolzarb muammolarni aniqlash zamonaviy ijtimoiy vazifalardan biriga aylangan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bu esa mahalla institutining o'rni va ahamiyatini yanada kuchaytirishni taqozo etadi. Mahalla jamiyatning eng kichik va eng muhim bo'linmasi sifatida barcha yoshdagi, ijtimoiy guruhlar va etnik qatlamlarni birlashtiruvchi ijtimoiy vosita hisoblanadi.

Mahalla instituti jamoat tartibini saqlash, ijtimoiy adolatni ta'minlash, aholining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish, shuningdek davlat siyosati va dasturlarini mahalliy darajada amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, mahalla institutining samaradorligi mamlakat barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, mahalla institutlari samaradorligini tahlil qilish va uni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur hisoblanadi.



Ushbu tadqiqotda mahalla institutlari samaradorligi ijtimoiy so'rovnoma asosida baholandi. So'rovnoma metodi orqali mahalla institutining aholiga yaqinligi, faoliyat samaradorligi, jamoatchilikning mahalla organlariga bo'lgan ishonchi va munosabati yuzasidan aniq hamda chuqur ma'lumotlar olish imkoni yaratildi. Bu esa mahalla tizimini rivojlantirish, ijtimoiy siyosatni takomillashtirish va mahalliy muammolarni samarali hal etish uchun muhim axborot manbaiga aylandi.

So'rovnoma orqali mahalla faoliyatini tahlil qilish jamoatchilik fikri, ehtiyojlari va istiqbollarini aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa mahalla faoliyatini takomillashtirish, unga oid strategiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda ilmiy asos bo'ladi. Shu bilan birga, mahalla institutining faoliyatiga oid muammolar va ularning yechimlariga doir ma'lumotlarni yig'ish, amaliy takliflar ishlab chiqish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, aholining hayot darajasini oshirish va ijtimoiy adolatni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalla instituti jamiyatdagi eng qadimiy va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli institutlardan biri hisoblanadi. Uning samaradorligi masalasi ko'plab ilmiy izlanishlar markazida bo'lib kelmoqda. So'nggi yillarda mahallaning ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, fuqarolarning muammolarini hal etishdagi o'rni, hamda aholining bu institut faoliyatiga bo'lgan ishonchi masalalari dolzarb mavzuga aylandi.

Mahalla institutining zamonaviy boshqaruv tizimidagi o'rni haqida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi R.M. Niyozov o'z tadqiqotlarida mahallaning nafaqat an'anaviy ijtimoiy tartibni saqlovchi, balki aholi manfaatlarini ifodalovchi fuqarolik jamiyati institutiga aylanishi zarurligini ta'kidlagan. Niyozovning qarashlariga ko'ra, mahalla fuqarolar yig'inlari samaradorligini oshirish uchun ularning mustaqilligini ta'minlovchi normativ-huquqiy baza yanada takomillashtirilishi kerak.

Sotsiolog A.K. Salimov esa mahalla faoliyatining aholi bilan bevosita aloqasi, ishonch va ijtimoiy ishtirok orqali baholanishi lozimligini urg'ulagan. U olib borgan tadqiqotlarda so'rovnoma metodlaridan foydalangan holda aholining mahalla yetakchilariga bo'lgan munosabatlari, xizmatlardan foydalanish darajasi, axborotga ega bo'lish imkoniyati o'rganilgan. Salimov so'zlariga ko'ra, past daromadli aholining ijtimoiy yordamga bo'lgan ehtiyoji kuchli bo'lib, ular mahalla xizmatlaridan nisbatan faolroq foydalanadi.

Mahalla institutining boshqaruv tizimiga integratsiyalashuvi haqida tahlil bergan G'.Q. Ergashev o'z ishlarida mahallaning ijtimoiy xizmat ko'rsatish, profilaktika ishlari, bandlikka ko'maklashish kabi yo'nalishlardagi salohiyatini tizimli baholash uslublarini ishlab chiqqan. Uning fikricha, samaradorlikni baholashda faqatgina statistik ko'rsatkichlarga emas, balki subyektiv fikrlar — so'rovnoma va intervyularga ham e'tibor qaratish lozim.

Xalqaro tadqiqotlarda ham fuqarolarning mahalla tipidagi o'zini o'zi boshqarish institutlariga bo'lgan ishonchi va ulardan foydalanish modeli keng tahlil qilingan. Masalan, Mark Bray tomonidan olib borilgan solishtirma tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Osiyo davlatlarida mahallaga o'xshash jamiyat institutlari ijtimoiy xizmatlarning joylardagi moslashuvchanligini ta'minlovchi vosita sifatida qaraladi. Bray bu institutlarning samaradorligini baholashda aholining ehtiyojlariga moslashtirilgan xizmatlar soni, ulardan foydalanish chastotasi va ishonch darajasini asosiy mezonlar sifatida belgilagan.

Shuningdek, Toshkentdagi Ijtimoiy fikr markazi tomonidan o'tkazilgan monitoring tahlillarida aholining mahalla faoliyatidan xabardorligi, yetakchilarga murojaat qilish holatlari va xizmatlardan rozi bo'lish darajalari haqida chuqur ma'lumotlar keltirilgan. Bu natijalar asosida mahalla institutining resurs ta'minoti va inson kapitalini kuchaytirish zarurligi haqida xulosa chiqarilgan.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, mahalla institutining samaradorligi faqat tashkiliy yoki huquqiy mezonlar bilan emas, balki ularning aholiga nechog'li yaqin bo'lishi, ishonch uyg'ota olishi va ehtiyojlarga javob berish darajasi bilan belgilanadi. So'rovnomalarda esa bu omillarni aniqlashda eng samarali vositalardan biridir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

So'rovnomaning asosiy maqsadi – O'zbekistonda mahalla institutlari faoliyati samaradorligini tahlil qilish va uni bir tomonlama emas, balki tizimli asosda baholashdan iborat.

So'rovnomaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Mahalla tuzilmasi, funksiyalari va qonuniy maqomi haqida ma'lumotlarni tahlil qilish;

Mahalla institutlarining jamiyatdagi ijtimoiy rolini aniqlash;

Aholining mahalla faoliyatiga bo'lgan munosabatini o'rganish;

So'rovnoma orqali mahallaning samaradorligi, adolatligi, yordam darajasi kabi jihatlarni baholash;

Aholi bilan ishlash, muammolarni hal etish va tashabbus ko'rsatish kabi faoliyat yo'nalishlarini aniqlash;

Mahalla faoliyatini yanada samarali tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

So'rovnomada respondentlarga quyidagi savollar taqdim etildi (1-jadval).



1-jadval. So'rovnoma savollari va ularning asoslanishi

№	I BO'LIM. RESPONDENT REKVIZITLARI	
	Ijtimoiy so'rovnoma savollari	Savolni ko'yilishidan maqsad
1.	Yoshingiz? 16-30 31-40 41-50 51-60 60 dan katta	Respondentlarning yosh bo'yicha segmentini aniqlash mahalla institutining yoshlar kesimidagi zaruratini aniqlash
2.	Jinsingiz? Erkak Ayol	Mahalla institutining xizmatlariga bo'lgan zaruratni jinslar kesimida tahlil qilish
3.	Ta'lim darajasi: O'rta maktab Kasb-hunar bilim yurtlari Oliy ta'lim (bakalavr) Oliy ta'lim (magistratura va yuqori)	Mahalla institutlariga bo'lgan zaruratni ijtimoiy qatlarning ta'lim darajasiga ko'ra aniqlash
4.	Ijtimoiy holati: Oilali Beva Nikohda emas (turmush qurmagan)	Mahalla institutlariga bo'lgan zaruratni jamiyatning ijtimoiy statusiga ko'ra aniqlash
5.	Mehnat faoliyati: Ishlayapman Ishsiz Talaba Nafaqada Uy bekasi O'z-o'zini band qilgan	Mahalla institutlariga bo'lgan ehtiyojni jamiyatning mehnat faoliyatiga ko'ra aniqlash
6.	Yashash joyi: Shahar Qishloq	Mahalla institutlari faoliyatini aholining hududiy mansubligiga ko'ra baholash
7.	Daromadingiz: 1 mln.so'mdan 3mln.so'mgacha 3 mln.so'mdan 5 mln. so'mgacha 5 mln.so'mdan 7 mln.so'mgacha 7 mln.so'mdan yuqori	Mahalla institutlariga bo'lgan zaruratni aholi daromadlariga ko'ra aniqlash
8.	Daftarlar yoki ijtimoiy himoya restorlarida ro'yxatda turasizmi? Yo'q "Yoshlar daftari"da ro'yxatda turaman "Ayollar daftari"da ro'yxatda turaman "Kambag'al oilalar reyestri"da turaman "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"da turaman	Mahalla institutlariga bo'lgan zaruratni aholining mahsus guruhlari kesimida aniqlash
II BO'LIM. MAHALLA FAOLIYATINI BAHOLASH		
1.	Siz istiqomat qilayotgan hududdagi mahalla fuqarolar yig'ini (keyingi o'rinlarda MFY) mas'ullarini (mahalla yettiligi) taniysizmi? • Taniyman • Tanimayman Menga qiziq emas	Bu savol mahalla mus'ullari jamiyatning turli qatlamlariga qay darajada kirib borganligini, yoki jamiyatning aniqlash mumkin.
2.	Siz istiqomat qilayotgan hududda MFY tomonidan fuqarolarga beriladigan yuridik maslahat turlari qanchalik keng va samarali deb o'ylaysiz? Samarali Qoniqarli Samarali emas Bilmayman	Bu savol orqali mahalla institutlari faoliyati va samaradorligini baholash mumkin.



3.	Tegishli masalalar bo'yicha mahalla fuqarolar yig'iniga murojaat qilganmisiz? Umuman ishim tushmagan Ba'zida Tez-tez Doimiy ravishda	Bu savol orqali jamiyatning ijtimoiy xayotida mahalla institutlarining tutgan o'rnini baholash mumkin.
4.	Siz istiqomat qilayotgan hududdagi MFYda ijtimoiy yordamga muxtoj oilalarga yordam ko'rsatish tizimini qay darajada samarali deb hisoblaysizmi? Ha, samarali Qoniqarli Samarali emas Bilmayman	Bu savol orqali mahalla institutlari faoliyati va samaradorligini baholash mumkin.
5.	Siz istiqomat qilayotgan hududdagi MFY qaysi yo'nalishlarda xizmatlar yetarlicha emas deb hisoblaysiz? Ijtimoiy yordam Yoshlar bilan ishlash Obodonlashtirish Bandlikni ta'minlashga ko'maklashish Xavfsizlik va proflaktika Boshqa (ko'rsating) _____	Bu savol orqali mahalla institutlarining funksional vazifalaridagi kamchiliklarni baholash mumkin.


## TAHLIL VA NATIJALARI

So'rovnomma "Google Forms" platformasida amalga oshirildi va unda jami 711 nafar respondent ishtirok etdi. Ularning 47,4 foizini 16–30 yosh oralig'idagi shaxslar, 38,9 foizini 34–40 yoshdagilar, 10 foizini 41–60 yoshdagi fuqarolar hamda 2,8 foizini 60 yoshdan yuqori bo'lgan ishtirokchilar tashkil etdi. Respondentlarning 41,2 foizi erkaklar, 58,8 foizi esa ayollardan iborat (1-rasm).



1-rasm. Respondentlarning yoshi va jinsi bo'yicha ishtiroki

Bundan tashqari, respondentlarning 52,1 foizi oliy ta'lim darajasiga ega bo'lsa, 38,9 foizi oliy ta'limdan yuqori darajadagi ma'lumotga ega. 8,9 foizi esa o'rta maktab yoki kasb-hunar bilim yurtlarini tamomlagan. Oilaviy holatga ko'ra, respondentlarning 37,4 foizi turmush qurmagan, 60,7 foizi oilali, 2 foizi esa beva ekanligini bildirgan (2-rasm).




2-rasm. Respondentlarning ijtimoiy statusi va ta'lim darajasi bo'yicha ishtiroki



Shu bilan birga, respondentlarning mehnat faoliyatiga ko'ra 64,5 foizi ish bilan band bo'lganlar, 4,3 foizi ishsizlar, 25,6 foizi talabalar, 1,4 foizi nafaqaxo'rlar, 1,9 foizi bola parvarishi ta'tilida bo'lgan shaxslar va 0,5 foizi uy bekalaridan iborat.


Yashash hududi bo'yicha tahlil qilinganda esa respondentlarning 64 foizi shahar aholisiga, 36 foizi esa qishloq punktlarida yashovchi aholiga to'g'ri keladi (3-rasm).



3-rasm. Respondentlarning hududiy mansubligi va mehnat faoliyati bo'yicha ishtiroki

Aholi daromadlari va mahalla institutlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan talab o'rtasida teskari bog'liqlik mavjudligi kuzatilmoqda. So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 33 foizi oyiga 1–3 million so'm miqdoridagi daromadga ega ekanligini bildirgan. 26,6 foizi esa 3–5 million so'm daromadga ega deb javob bergan. 5–7 million so'm miqdorida daromad oluvchi respondentlar eng kichik ulushni tashkil etib, 11,8 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, 7 million so'mdan yuqori daromadga ega bo'lgan respondentlar soni 28,6 foizni tashkil etgan.

Shu bilan birga, so'rovnomada ishtirok etganlarning 98,6 foizi hech qanday "daftarlari" yoki ijtimoiy himoya reyestrlarida ro'yxatda turmasligini bildirgan. Faqat 0,5 foizi "Yoshlar daftari"da, 0,5 foizi "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"da va yana 0,5 foizi "Ayollar daftari"da ro'yxatga olinganini ma'lum qilgan (4-rasm).




4-rasm. Respondentlarning daromadlari va ijtimoiy himoya guruhlariga mansubligi bo'yicha ishtiroki

Endilikda, so'rovnomaning ikkinchi bo'limi natijalariga murojaat qilamiz.

Ikkinchi bo'lim doirasidagi "Siz istiqomat qilayotgan hududda mahalla fuqarolar yig'ini va ularning vakillarini tanisizmi?" degan savolga respondentlarning 59,7 foizi ularni tanishini, 32,7 foizi tanimasligini, 7,6 foizi esa mahalla va uning vakillari bilan umuman qiziqmasligini bildirgan.




Shuningdek, “Tegishli masalalar bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘iniga murojaat qilganmisiz?” degan savolga respondentlarning 50,2 foizi hech qachon murojaat qilmaganini, 46,9 foizi ba’zida murojaat qilganini bildirgan. Faqatgina 0,9 foizi doimiy ravishda va 1,9 foizi esa tez-tez murojaat qilishini qayd etgan (5-rasm).



5-rasm. Respondentlarning MFY vakillari tanishi va o‘zlarining muammolari yuzasidan MFYga murojaat etishi bo‘yicha natijalar

Shuningdek, “Siz istiqomat qilayotgan hududda MFY tomonidan fuqarolarga beriladigan yuridik maslahat turlari qanchalik keng va samarali deb o‘ylaysiz?” degan savolga respondentlarning 18,5 foizi bu xizmatlarni samarali deb hisoblagan, 25,6 foizi qoniqarli deb baholagan, 18,5 foizi esa ularni samarali emas deb topgan. Shu bilan birga, respondentlarning 37,4 foizi bu borada hech qanday ma’lumotga ega emasligini bildirgan.

Bundan tashqari, “Siz istiqomat qilayotgan hududdagi MFYda ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarga yordam ko‘rsatish tizimini qay darajada samarali deb hisoblaysiz?” degan savolga so‘rovnoma ishtirokchilarining 23,7 foizi bu tizimni samarali, 26,3 foizi qoniqarli deb baholagan. 16,1 foizi uni samarali emas deb hisoblagan bo‘lsa, 33,6 foizi bu borada hech qanday axborotga ega emasligini bildirgan (6-rasm).



6-rasm. Respondentlarning MFY faoliyatining samaradorligi bo‘yicha natijalar

Natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘rovnoma ishtirokchilarining yuqori daromadli qatlami odatda mahalla fuqarolar yig‘iniga murojaat qilmagan, mahalla mas’ullarini tanimaydi hamda ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning samaradorligi haqida ma’lumotga ega emas. Aksincha, past daromadli qatlam vakillari



orasida mahalla instituti tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarga nisbatan talab yuqoriligi kuzatilmoqda. So'rovnomaning yakuniy savoli – "Siz istiqomat qilayotgan hududdagi MFY qaysi yo'nalishlarda xizmatlar yetarli emas deb hisoblaysiz?" – mazmunida bo'lib, unga javoban respondentlar tomonidan quyidagi natijalar qayd etildi (7 rasm):



7-rasm. Respondentlarning mahalla ko'proq ahamiyat berishi lozim bo'lgan sohalari bo'yicha natijalar

Ushbu savolda respondentlarga bir nechta javobni tanlash imkoniyati berilganini inobatga olsak, natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, respondentlarning 42,2 foizi yoshlar bilan ishlash borasida sustkashliklar mavjud deb hisoblagan. 44,1 foizi bandlikka ko'maklashishda mahalla fuqarolar yig'inlarining roli cheklanganligini qayd etgan. Shu bilan birga, 33,2 foizi obodonlashtirish ishlariga ko'proq e'tibor qaratish zarurligini bildirgan. 20,9 foizi esa xavfsizlik va profilaktikaga alohida e'tibor qaratilishi kerakligini ta'kidlagan. Ijtimoiy yordam xizmatlariga yetarli e'tibor berilmayotganini ko'rsatgan qatlam 29,9 foizni tashkil etgan. Bundan tashqari, 3,3 foiz ishtirokchi bolalar maydonchalari, tadbirlar o'tkazish, tratuarlar va ichki yo'llar qurilishi, ekologiya va boshqa yo'nalishlarga yetarli e'tibor qaratilmayotganini bildirgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan so'rovnoma natijalari mahalla institutlarining ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishdagi ahamiyatini tasdiqladi. Ayniqsa, past daromadli aholi qatlamlari ushbu xizmatlardan faol foydalangani, mahallaning ijtimoiy himoya vositasi sifatidagi rolini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa, kelgusida ijtimoiy himoya mexanizmlarini yanada takomillashtirish va maqsadli guruhlar bilan samarali ishlash bo'yicha aniq yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi.

Yuqori daromadli aholi vakillarining mahalla faoliyatiga kamroq jalb etilgani va axborotdan nisbatan xabarsizligi — mahalla institutlarining kommunikatsion imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini bildiradi. Ushbu holat axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish orqali turli ijtimoiy qatlamlarni faolroq ishtirokga jalb qilish imkonini yaratadi.

So'rov natijalariga ko'ra, mahalla fuqarolar yig'inlari vakillarini shaxsan tanish darajasi va ularga murojaat qilish holatlaridagi tafovut — jamoatchilik bilan muntazam, ochiq va ishonchli muloqotni yo'lga qo'yish lozimligini anglatadi. Bu borada doimiy axborot almashinuvi, ochiq eshiklar kunlari va jamoaviy muhokamalar tashkil etilishi fuqarolar faolligini oshiradi.

Aholining yuridik maslahatlar va ijtimoiy xizmatlar haqidagi xabardorligi turlicha ekani — axborot yetkazish kanallarini yanada diversifikatsiya qilish, raqamli va an'anaviy vositalarni uyg'unlashtirish orqali xizmatlardan xabardorlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa xizmatlar qamrovini kengaytiradi va ishonch darajasini mustahkamlaydi.

Mahalla faoliyatida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan asosiy yo'nalishlar sifatida yoshlar bilan ishlash, bandlikni rag'batlantirish, obodonlashtirish va xavfsizlik masalalari ajralib turadi. Ushbu yo'nalishlarda kompleks dasturlar ishlab chiqilishi, tegishli resurslar ajratilishi va monitoring tizimining joriy qilinishi mahalla institutlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, mazkur so'rovnoma natijalari mahalla institutlari faoliyatini baholashda muvozanatli yondashuvni taqozo etadi. Mahalla tizimining salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun mavjud



resurslarni hududlar kesimida adolatli taqsimlash, ularning faoliyatiga doir strategik rejalashtirish va boshqaruv tizimlarini takomillashtirish dolzarb vazifadir. Shu orqali mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalari yanada samarali amalga oshiriladi.

Fikrimizcha, mahalla institutlarining samaradorligini oshirish uchun:

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish,

aholining ehtiyoj va murojaatlarini tizimli ravishda qayd etish,

hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarni inobatga olgan holda xizmatlarni moslashtirish zarur hisoblanadi.

Bu chora-tadbirlar mahalla institutlarining ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, so'rovnomalar natijalari mahalla institutlarining jamiyatdagi ijtimoiy funksiyalarini takomillashtirish, mavjud ehtiyojlarga mos chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur institutlar faoliyatining izchil rivojlanishi mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bahridinov, V. (2024). Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institusional tahlili. *YaShIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(6). Retrieved from <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2691>
2. Amirdjanova, S. (2024). Poverty in developing countries: new problems and solutions. *YaShIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(8). Retrieved from <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/-view/2556>
3. Беркинов Б. (2024). Маҳалла ҳудудида камбағалликни бартараф этиш йўллари. *Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил*, 2(1), 310-317.
4. Беркинов Б. (2024). Маҳалла ҳудудида аҳолини озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган истеъмол талабларининг таҳлили ва прогнози. *Эсономисс анд Инновативе Течнологиес*, 12(2), 245-252.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024-йил 23-сентябрдаги "Камбағалликни қисқартириш ва аҳоли турмуш фаровонлигини ошириш борасидаги чора-тадбирларни янги босқичга олиб чиқиш тўғрисида"ги ПФ-143-сон Фармони. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) // Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси
6. <https://gov.uz/uz/bv/news/view/5337>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---